



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI  
MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O‘ZGARISHI VAZIRLIGI  
DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI MARKAZI  
TOSHKENT VILOYATI FILIALI**

Manzil: Nurafshon shahar, Birlik MFY, Toshkent yo‘li ko‘chasi 32-uy. Tel: +998  
55-900-07-70 (#1024)

**DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI  
XULOSASI**

**TARTIB RAQAM 01-02/11-5083**

**HUJJAT TURI** Atrof-muhitga ta'sir to'g'risidagi ariza loyihasi

**Davlat ekologik ekspertizasi buyurtmachisi: INTERESTING CITY MCHJga berildi.**

**STIR: 311025175**

**Obyekt nomi:** Toshkent viloyati Bo'stonliq tuman, "Pargos" MFY hududi "Toshkent" ko'chasi 235D-uyda "INTERESTING CITY" MCHJ tomonidan savdo maishiy xizmat ko'rsatish majmuasi bo'lgan ko'p qavatli turar-joy binolari qurilishining "Atrof-muhitga ta'siri to'g'risidagi bayonot" loyihasi

**Loyihalarini ishlab chiquvchi nomi: INTERESTING CITY MCHJ**

**STIR: 311025175**

**Davlat ekologik ekspertizasi mas'ul eksperti: QODIROV KAMOLIDDINXON  
ZAYNIDDINXON O'G'LI**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son qarori bilan tasdiqlangan 1-ilovaga muvofiq, ushbu davlat ekologik ekspertizasi obyekti atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning III toifa toifasining 52-bandiga mansub.

O'tkazilgan davlat ekologik ekspertizasi natijasi: **Ijobiy xulosa**

Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi: **Ilovasiz huquqiy hujjat hisoblanmaydi**

**Berilgan sana: 19.04.2025**

**Amal qilish muddati: 19.04.2028**

*Ekologik ekspertiza obyektining ekologik talablarga muvofiqligi, joylashuv nuqtalari koordinatalari, atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlari, bajarilishi shart bo'lgan talablar va boshqalar to'g'risida ilovada keltirilgan O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining Davlat ekologik ekspertiza markazi va filiallarining ekspert xulosasi ushbu davlat ekologik ekspertizasi xulosasining ajralmas qismi hamda unda belgilangan talablar bajarilishi shart hisoblanadi.*

*Izoh: Buyurtmachi tomonidan davlat ekologik ekspertizasi xulosasida nazarda tutilgan ekologik talablarga rioya etilmaganda, davlat ekologik ekspertizasi xulosasi qonunchilikda belgilangan tartibda bekor qilinadi.*

Direktor



A.Xolmurodov

## **Davlat ekologik ekspertisasi natijalari bo'yicha Ekspert xulosasi talablari**

**“INTERESTING CITY” MCHJ quyidagilarni ta'minlashi lozim:**

**- Loyihalashtirilayotgan ob'ekt qurilish ishlarini boshlashdan avval O'zR 0350-17 sonli sanitariya qoida va me'yorlaning tegishli bandiga binoan, uning uchun belgilangan sanitariya-muhofaza zonasi yuzasidan, Bo'stonliq tuman Sanitariya - Epidemalogik Osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati tomonidan tegishli xulosa olinishi lozim;**

**- mazkur ob'ekt tashkil etilib ishga tushishidan oldin O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.09.2020 yildagi 541-sonli (Atrof muhitga ta'sirini baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to'g'risida) qaroriga muvofiq atrof muhitga ta'sirni baholash jarayonining keyingi bosqichini ishlab chiqib, belgilangan tartibda davlat ekologik ekspertizasidan o'tkazilishi lozim.**

**- Ob'ektni tashkil etishda o'simlik dunyosiga zararli ta'sirni kamaytirish uchun, ob'ekt hududida mavjud bo'lgan o'simliklarni maksimal darajada saqlash usullarini topish lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 31 dekabrda "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-46-sonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 18 fevraldagi 93-sonli "Davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarning qimmatbaho navlarini saqlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori talablariga muvofiq, moratoriy amal qilishi belgilandi, unga ko'ra vakolatli davlat organlariga davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalar qimmatbaho navlarining kesilishi man etiladi.**

**Eslatma: 2016 yil 21-sentyabrdagi 409-sonli O'zbekiston Respublikasi O'simlik dunyosi muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi qonun talablaridan kelib chiqib 51-modda bo'yicha O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlikga tortilishi belgilangan.**

**- mazkur ob'ektni ushbu tanlangan yer maydoniga joylashtirishda, uning atrofidan o'tgan muxandislik (gaz, yo'l, suv, elektr, aloqa va boshqalar) tarmoqlarining muhofaza mintaqalarini saqlashi;**

- hosil bo'lgan qattiq-maishiy chiqindilarni turlariga ko'ra saralab, ikkilamchi xom-ashyo sifatida tegishli korxonalariga topshirilsin, hududda chiqindilarni vaqtincha saqlash uchun maxsus joy tashkil qilinsin;

**- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, "yashil makon" umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 23-noyabrdagi PF-199-sonli va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 31 dekabrdagi "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-46-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.08.2022 yildagi 464-sonli qaroriga muvofiq ko'chat va daraxtlar ekish va ishlarni tashkillashtirish lozim;**

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Chorvoq suv ombori atrofidagi tog' va tog' oldi hududlarda o'simlik qoplaminig qisqarishini oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar" to'g'risidagi 6.08.2021 yildagi 499-sonli qarori talablarini bajarish maqsadida Qurilish ishlari, qurilish maydoni umumiy yer qismining 40% dan ko'p bo'lmagan qismida amalga oshirilishini hamda loyiha maydoniga qarab har 50 sotix uchun 60 tup daraxt ekish va parvarish qilish;**

- binoni va hududni yoritish uchun tarkibida simob moddasi bo'lgan energiya tejoyvchi yoritgichlar ishlatilishi rejalashtirilsa, foydalanishdan chiqqan yaroqsizlarini belgilangan joyda maxsus qutida saqlanishi ta'minlansin va ularni zararsizlantirish (demerkurizatsiya) uchun maxsus ixtisoslashgan korxonalariga topshirilsin;

- yong'in va texnika xavfsizligiga rioya etilishiga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

- qurilish rejalashtirilgan hududning kirish va chiqish yo'lakalarida maxsus yuk tashuvchi mashinalarni ballonlarini yuvish va chang ko'tarilishini oldini olish maqsadida maxsus blok postlar o'rnatish talab etiladi.

- qurilish davrida chang va sho'vqini oldini olish maqsadida yuqori qavatlardagi qurilish va ta'mirlash chiqindilarini xavfsiz va tez pastga tushirish uchun maxsus qurilish shlanglari va bardoshli axlat qutilarini (stroitelnyy rukav) o'rnatish talab etiladi.

**Qurilish jarayonida hosil bo'lgan qurilish (singan g'isht, ohak, gips chiqindilari, sementli qorishmalar, profnastil yoki shifer qirqimlari va boshqa) chiqindilarini o'z vaqtida viloyatining tegishli tashkilotlari tomonidan tuman chiqindixonasiga olib borib joylashtirilishi lozim. Qurilish chiqindilarini yer ostiga ko'mib tashlashga yo'l qo'yilmasin.**

**- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28.01.2021 yildagi 40-sonli "Qurilish chiqindilari bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi nizom talablariga**

amal qilish, shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.10.2018 yildagi 787-sonli “Maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi ishlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi nizomga muvofiq tasdiqlangan “Sanitariya jihatidan tozalash infratuzilmasi ob‘ektlarini joylashtirish va ulardan foydalanish hamda maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish qoidalari”ga asosan ishlarni tashkil etish;

- maishiy chiqindilarni to‘plash va vaqtincha saqlash uchun maxsus punktlarni tashkil etish (standart bo‘yicha), ularni xili bo‘yicha alohida idishlarda yig‘ilishini ta‘minlash va ularni olib chiqish bo‘yicha ixtisoslashgan sanitariya kompaniyalari bilan shartnoma tuzish;

- Mazkur savdo majmua tashkil etilgandan so‘ng, ob‘ektning “Chiqindilarning paydo bo‘lishi va joylashtirilishining ekologik normativlari” (PDO) loyihasini ishlab chiqib, belgilangan tartibda davlat ekologik ekspertizasidan o‘tkazishi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 apreldagi “O‘zbekiston respublikasi hududida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 202-sonli qaroriga asosan, atrof-muhitni ifloslantirganlik uchun kompensatsiya to‘lovlarining hisob-kitoblari to‘lovini amalga oshirishi lozim.

Davlat ekologik ekspertiza xulosasi tadbirkorlar subektlarining faoliyati bilan bog‘liq bo‘ladigan qonunchilikda belgilangan ruxsatnomalar tusidagi hujjatlarni bekor qilish yoki uning o‘rnini bosish xususiyatiga ega emas. (ushbu xulosa hududdagi daraxtlarni kesish yoki ko‘chirib o‘tkazish uchun asos xisoblanmaydi).

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Atrof-muhitga ta‘sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 07.09.2020 yildagi 541-sonli Qarori 26-bandi 4-xatboshisiga binoan ekologik ekspertiza xulosasini olish maqsadida taqdim etgan hujjatlar va ma‘lumotlarning ishonchligi va haqqoniyligi uchun buyurtmachi javobgar hisoblanadi.

Buyurtmachi Davlat ekologik ekspertizasi xulosasida ko‘rsatilgan talablarga rioya etmagan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.09.2020 yildagi 541-sonli (Atrof muhitga ta‘sirini baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to‘g‘risida) qarorining 7-bobida xulosani amal qilishini to‘xtatilishi belgilab qo‘yilgan.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etilmaganligi uchun korxonalar rahbari qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘lishini eslatib o‘tamiz.

O‘zbekiston Respublikasining “Ekologik ekspertizasi to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 07.09.2020 yildagi 541-son qarorining 6 va 7-boblari, 43, 53 va 57-bandlariga muvofiq, Davlat ekologik ekspertizasi xulosasining amal qilish muddati **uch yil** etib belgilangan. Shu bilan birga, agar ekspertiza ob‘ekti

davlat ekologik ekspertizasining xulosasi berilgan kundan boshlab uch yil mobaynida realizatsiya qilinmasa, davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasi yuridik kuchga ega bo‘lmaydi.

Xulosada ko‘rsatilgan shartlar bajarilmaganda va yuqorida ko‘rsatilgan faoliyatdan tashqari boshqa qo‘shimcha faoliyat turlari tashkil etilganda, tashlamalar va chiqindilar miqdori o‘zgargan taqdirda, ushbu ekologik ekspertiza xulosasi o‘z kuchini yo‘qotadi.

Ushbu davlat ekologik ekspertisasi xulosasida ko‘zda tutilmagan faoliyat turlari bilan shug‘illanish, yangi qurilish, qayta tiklash, kengaytirish ishlarini amalga oshirilishi va boshqa faoliyat turidan foydalanish ko‘zlangan taqdirda “Atrof muhitga ta’siri to‘g‘risidagi bayonot” (AMTTB) loyihasi ishlab chiqilib, belgilangan tartibda Davlat ekologik ekspertizasiga taqdim qilinishi hamda tegishli xulosa olinishi shart.

**Toshkent viloyati ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasining Bo’stonliq tuman inspeksiyasiga “INTERESTING CITY” MCHJ tomonidan ekologik qonunlari va me’yorlariga rioya etilishi ustidan muntazam nazoratga olishi yuklatiladi.**



Ma’sul ekspert: QODIROV KAMOLIDDINXON ZAYNIDDINXON O‘G‘LI

## Obyekt haqida qisqacha ma'lumot

“Davlat ekologik ekspertiza markazi” Toshkent viloyati filialiga Bo’stonliq tuman, “Pargos” MFY hududi “Toshkent” ko’chasi 235D-uyda “INTERESTING CITY” MCHJ tomonidan savdo maishiy xizmat ko’rsatish majmuasi bo’lgan ko’p qavatli turar-joy binolari qurilishining “Atrof muhitga ta’siri to’g’risidagi bayonot” (AMTTB) loyihasi **qayta tadqim etilgan**.

2025 yil 18 martdagi 01-02/11-4449-sonli davlat ekologik ekspertizasi xulosasi bilan qayta ishlashga qaytarilgan.

Avvalgi loyiha xujjatlari; ob’ekt koordinatalari to’lig’ ko’rsatib o’tilishi lozim, hududdagi daraxtlarni asrash va noqonuniy kesib tashlanmasligi ma’nosida ma’lumotnoma (kafolat xati) tayyorlanib, (inspektor hamkorligida) “Atrof muhitga ta’siri to’g’risidagi bayonot” loyihasiga ilova qilinishi hamda qonun buzilishi yuzasidan amalga oshirilgan xujjatlar va to’lov varaqasi ilova qilinishi maqsadga muvofiq, Bo’stonliq tumani Sanitariya - Epidemalogik Osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati tomonidan tegishli xulosa olinishi lozim, 2022-yil 11-avgustdagi 189-sonli farmoni buyicha: belgilab qo’yilsinki, 2023 yil 1 yanvardan boshlab, yangi quriladigan kam kvartirali uylarni chiqindi to’plash joylarini belgilamasdan loyihalashtirish hamda foydalanishga qabul qilish taqiqlanadi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 28 yanvardagi 40-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 3-ilovasiga muvofiq shakl bo’yicha texnik hujjat ishlab chiqilmagan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Chorvoq suv ombori atrofidagi tog’ va tog’ oldi hududlarda o’simlik qoplaminig qisqarishini oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar” to’g’risidagi 6.08.2021 yildagi 499-sonli qarori talablarini bajarilmagan kabi kamchiliklar sababli qayta ishlashga qaytarilgan.

Loyihaga 27.05.2024 yilda berilgan P-BOST11168409 sonli kadastr pasporti va boshqa xujjatlar ilova qilingan.

Ob’ektning umumiy maydoni 14838 m<sup>2</sup>ni tashkil etib, uning hududi shimoli – sharq va shimoli – g’arbdan – avtomobil yo’li so’ngra turar joy binolari bilan, janubi-sharq va janubi –g’arbdan – turar joy binolari bilan chegaralangan.

Loyihada ob’ekt joylashishining geografik koordinatalari quyidagicha:

41°32'35.89" SHK 69°40'43.24" SHU;

41°32'37.17" SHK 69°40'46.32" SHU;

41°32'31.92" SHK 69°40'47.42" SHU;

41°32'32.67" SHK 69°40'49.85" SHU;

Eng yaqin aholi turar-joy uylari ob’ektning sharq tomonidan 20 metr masofada joylashgan.

Loyihaga “Pargos” MFY hududida “INTERESTING CITY” MCHJ tomonidan ko'p qavatli turar-joy binolari qurilishiga qarshilik bildirmasligi to'g'risida ushbu hududda istiqomat qiluvchi fuqarolar va boshqalar tomonidan 08.04. 2025 yilda tasdiqlangan 4-sonli yig'ilish bayoni va boshqalar ilova qilingan.

Ob'ekt joylashgan hududning fizik-geografik va iqlim holati xususiyatlari haqidagi ma'lumot “Atrof-muhitga ta'siri to'g'risidagi bayonot” loyihasining 1-bo'limida to'liq keltirilgan. Ushbu mintaqada shimoli-sharq shamollari ustunlik qiladi, ularning o'rtacha yillik miqdori 23% ni tashkil qiladi.

Mazkur mintaqada sizot suvlari yer sathidan 8,0 – 10,0 metr chuqurlikda joylashgan. Ob'ekt joylashgan yer maydoni yaqin atrofida oqib o'tuvchi yirik ochiq suv havzasi mavjud emas.

**Loyihada keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra ob'ekt hududida qurilish ostiga tushuvchi daraqxt va butalar mavjud emas. Ushbu yuzasidan loyihaga Toshkent viloyat ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasining Bo'stonliq tuman inspeksiyasi tomonidan tasdiqlangan o'rganish dalolatnomasi ilova qilingan bo'lib, unga ko'ra hududda 6 tup xarxil turdagi daraxtlar mavjud bo'lib, qurilish ostiga tushmasligi keltirib o'tilgan. Qurilish davomida daraxtlarga shikast yetkazmali yuzasidan korxonalar tomonidan tasdiqlangan kafolat xatlari xam ilova qilingan.**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 31 dekabrda  
“Respublikada ko'klamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar  
muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” PF-  
46-sonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining  
2020 yil 18 fevraldagi 93-sonli “Davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar  
va butalarning qimmatbaho navlarini saqlashga doir qo'shimcha chora-  
tadbirlar to'g'risida”gi qarori talablariga muvofiq, moratoriy amal qilishi  
belgilandi, unga ko'ra vakolatli davlat organlariga davlat o'rmon fondiga  
kirmaydigan daraxtlar va butalar qimmatbaho navlarining kesilishi man  
etiladi.**

Ko'zlangan maqsadni amalga oshirish uchun hududdan foydalanish turlari ko'rsatilgan holda ob'ektni joylashtirish rejasiga ko'ra, ob'ektning umumiy yer maydoni – 14838 m<sup>2</sup> bo'lib, shundan qurilish ostidagi maydoni – 6400 m<sup>2</sup>, qolgan hududni yashil maydon – 5935 m<sup>2</sup> va qattiq qoplamali yer maydoni – 2503 m<sup>2</sup> tashkil etadi.

Hammasi bo'lib turara joy binosi 8 ta blok bo'lib, xar biri 800 m<sup>2</sup>ni tashkil etadi. Shundan 6 ta blok 2 yo'lakli hamda 2 ta blok 1 yo'lakli bo'ladi. Turar-joy binolari 5 qavatli bo'lib, turar-joy binosining 3 ta bloki birinchi qavatida savdo va xizmat ko'rsatish binosi, jumladan, do'konlar (ozuq-ovqat do'konlari) bo'ladi. Turar-joy binosining bitta blokida esa maktabgacha ta'lim muassasasi tashkil etiladi. binolarda 300 dona xonadonlar tashkil etilib, ularda 1200 nafar axoli istiqomat qilishi rejalashtirilgan. Qish mavsumida turar-joy binolarini isitish har bir xonadon

va xonaga o'rnatiladigan tabiiy gazda ishlaydigan devorga o'rnatilgan individual qozon orqali ta'minlanadi. Oshxonada esa gaz plitalaridan foydalaniladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi 100 o'rinli bo'lib, yiliga 300 kun bir smenada ishlaydi. Ishchilar soni 20 nafar, shundan 13 nafar tarbiyachi, 3 nafar ma'muriy-boshqaruv xodimi, 2 nafar oshpaz, 1 nafar farrosh, 1 nafar qorovul.

Umumiy maydoni 2400 m<sup>2</sup> bo'lgan do'konlar va ofis xonalari (ularning yarmi tovarlarni saqlash uchun ombor bo'ladi) binoning birinchi qavatida joylashgan bo'lib, aholiga kiyim - kechak sotiladigan ikkita xonadan iborat bo'ladi. Do'kondagi ishchilar soni 60 ishchi bo'ladi. Binolarni isitish qishki-yozgi konditsionerlar yordamida ta'minlanadi. Do'kon yiliga 300 kun ishlaydi.

Chiqindilarni saqlash joyi uch tomondan panjara (balandligi 1,5 metr g'isht panjarasi) va qattiq sirtli maydon bilan o'ralgan. Saytda 1 m<sup>3</sup> hajmli 5 yoki 6 ta metall (plastik idishlar) o'rnatilgan bo'ladi.

Ekspulatsiya davrida atmosfera havosini ifloslantiruvchi tashlamalar manbalari soni 150 ta tashkillashtirilgan bo'lib, ulardan atmosfera havosiga yiliga 3 turdagi ifloslantiruvchi moddalardan: uglerod oksidi 21,909 t/yil, azot ikki oksidi 6,306 t/yil, oltingugurt dioksidi 0,1078 t/yil tashlanmalar tashlanishi kuzatiladi.

Atmosfera havosiga tashlanayotgan ifloslantiruvchi moddalarning yer ustki qatlamidagi maksimal konsentratsiyalarining yoyilishi loyihada hisoblanganda, zararli modda tashlamalarining yer usti yoyilishi konsentratsiyasi korxonaga chegara hududida ular uchun o'rnatilgan me'yor (kvota) darajasidan oshmasligi aniqlandi.

Obyekt joylashgan hududda tuman muhandislik-texnik kommunikatsiya tizimlaridan ichimlik suv, gaz, elektr energiyasi mavjud bo'lib, ular mutasaddi korxonalarining ruxsatnomalari (texnik shart) asosida ulanishi ko'zda tutilgan.

Xo'jalik-ichimlik va xo'jalik-maishiy ehtiyojlari uchun tuman suv tarmog'idan yiliga – 101170,5 m<sup>3</sup>, hududga suv sepish va ko'kalamzorlashtirilgan maydonni sug'orish uchun ariqdan yiliga – 1930,68 m<sup>3</sup> miqdorda suv sarfi kuzatiladi.

Suv iste'moli miqdori – oqava suvlar hosil bo'lish miqdoriga teng bo'ladi. Ob'ekt faoliyatida hosil bo'ladigan oqava suvlari tuman kanalizatsiya tarmog'iga tashlanishi ko'zda tutilgan.

**Tuproq va yer osti suvlariga oqava suvlarini oqib o'tishini oldini olish uchun muntazam ravishda profilaktika tekshiruvlarini o'tkazish va kerak bo'lganda gidroizolyatsiyasini ta'mirlash tavsiya etiladi.**

Yomg'ir suvlari irrigatsiya tarmoqlariga yo'naltirilib oqiziladi. Ochiq suv havzalardan suv iste'mol qilish va ularga suv oqizib yuborish loyiha hujjatida nazarda tutilmagan.

Ekspulatsiya davrida, ob'ektda quyidagi ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilarining hosil bo'lishi kuzatiladi: ishdan chiqqan lampalar – 0,0219 tn/yil, (xavflilik sinfi V); qayta ishlash uchun maxsus korxonalariga topshiriladi; qattiq maishiy chiqindilar turar joy binolaridan – 525,24 tn/yil, (xavflilik sinfi IV); maishiy chiqindilar bog'chadan – 7,3 tn/yil, (xavflilik sinfi IV); qattiq maishiy chiqindilar savdo majmuada – 3 tn/yil, (xavflilik sinfi IV); yaroqsiz latta chiqindilar – 0,021 tn/yil, (xavflilik sinfi IV); oziq ovqat qoldiqlari – 10,8 tn/yil, (xavflilik sinfi V); suprindi chiqindilar – 80,238 tn/yil, (xavflilik sinfi IV), hosil bo'lgan chiqindilar maxsus chiqindi to'plash maydonchasida idishlarga (konteynerlar) to'planishi va tegishli korxonalari tomonidan shartnoma asosida belgilangan chiqindixonaga tashib ketilishi rejalashtirilgan.

Loyiha hujjatida atrof-muhit muhofazasiga qaratilgan chora-tadbirlar, hamda vujudga kelishi mumkin bo'lgan avariya holatlar oldini olish bo'yicha zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Ekologik ekspertizaning tahliliy natijalariga ko'ra, ko'rib chiqish uchun taqdim qilingan “Atrof muhitga ta'siri to'g'risidagi bayonot” (AMTTB) loyiha hujjatlari amaldagi O'zbekiston Respublikasi “Ekologik ekspertizasi to'g'risidagi” qonuni, Nizom hamda qonunosti ekologik me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq ishlab chiqilganligi aniqlandi.

**Davlat ekologik ekspertiza xulosasi tadbirkorlar subektlarining faoliyati bilan bog'liq bo'ladigan qonunchilikda belgilangan ruxsatnomalar tusidagi hujjatlarni bekor qilish yoki uning o'rnini bosish xususiyatiga ega emas. (ushbu xulosa hududdagi daraxtlarni kesish yoki ko'chirib o'tkazish uchun asos xisoblanmaydi)**

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Davlat ekologik ekspertizasi markazi Toshkent viloyati filiali, Bo'stonliq tuman, “Pargos” MFY hududi “Toshkent” ko'chasi 235D-uyda “INTERESTING CITY” MCHJ tomonidan savdo maishiy xizmat ko'rsatish majmuasi bo'lgan ko'p qavatli turar-joy binolari qurilishining “Atrof-muhitga ta'siri to'g'risidagi bayonot” (AMTTB) loyihasini **ma'qullaydi.**

**Filial direktori**

**A.Xolmurodov**



Ma'sul ekspert: QODIROV KAMOLIDDINXON ZAYNIDDINXON  
O'G'LI